



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## ALISHER NAVOIY KULLIYOTIDAGI SOQIYNOMADA QO'LLANGAN TALMEH SAN'ATI BADIY TAHLILI

### THE ARTISTIC FUNCTION OF THE TALMEH (ALLUSION) IN THE SAQINAMA OF ALISHER NAVOI'S KULLIYAT

**Rajabova Durdona Komil qizi**

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Fanlarni rivojlantirish  
bo'limi bosh mutaxassisi

E-mail: [durdonarajabova178@gmail.com](mailto:durdonarajabova178@gmail.com)

ORCID: 0009 0007 6147 249X

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./CGPG2995](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./CGPG2995)

**Annotatsiya:** *Alisher Navoiy kulliyotini o'rganish jarayonida uning juda ko'plab she'riy san'atlarga murojaat qilganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa Soqiynomada talmeh she'riy san'atini tahlil qilish jarayonida o'quvchi ham adabiyotni, ham tarixni birvarakayiga anglaydi. Navoiy asarlarini o'rganish mumtoz adabiyotni to'laligicha tushunishga, uning badiiy qiymatini anglashga ko'maklashadigan asosiy vositalardan biridir.*

**Kalit so'zlar:** *mualliflik korpusi, soqiynoma, devon, kulliyot, she'riy san'at.*

**Annotation:** *In the process of studying the corpus of Alisher Navoi, we witness that he turned to many poetic arts. Especially in the process of analyzing the poetic art of talmeh in Soqiynoma, the reader understands both literature and history simultaneously. Studying Navoi's works is one of the main tools that helps to fully understand classical literature and understand its artistic value.*

**Keywords:** *author's corpus, soqiynoma, divan, corpus, poetic art.*

Bugun sun'iy intellekt davrida yashayotganligimiz, ta'lim sohasidagi jadal rivojlanishlardan ham yaqqol seziladi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizning innovatsion axborot-texnologiyalari tizimida qo'llanish, ajdodlarimiz qoldirgan nodir merosni yosh avlodga targ'ib qilish va buning uchun zamonaviy filologik korpuslar yaratish juda dolzarb vazifadir. Aytish o'rinliki, hozirda dunyo ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'rni, unga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Barcha fan sohalari kabi mumtoz adabiyotni ham raqamlashtirishga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Shu nuqtayi nazardan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy ijodini keng ommaga targ'ib etish maqsadida yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusining yaratilishi ilmiy tadqiqotchilar uchun asosiy manbalardan biriga aylandi [Abjalova, G'ulomova, 2024: 42]. Ushbu korpusda Navoiy asarlarining ilmiy va amaliy



ahamiyati, janrlar tahlili hamda ularda qo'llangan badiiy san'atlar, iboralar ko'lami, izohtalab leksemalarning ma'nolarini tavsiflash bosqichlari, mutafakkir ishlatgan leksemalarning semantik teglari bazasini yaratish jarayonlari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning ijodida muhim ahamiyatga ega bo'lgan devonlaridan biri “Xazoyin ul-maoniy” devonidir. Ushbu devon 4 jildan iborat bo'lib, shoirning adabiy, ilmiy-falsafiy va badiiy merosini o'z ichiga olgan asarlar majmuasidir. U turkiy (eski o'zbek – chig'atoy) va fors-tojik tillarida yaratilgan bo'lib, Sharq adabiyotining eng yirik kulliyotlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy to'rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom berdi. Shu ma'noda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini “G'aroyib us-sig'ar” (“Bolalik g'aroyibotlari”) deb nomladi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) deb atadi. 35-45 yoshni umrning kuziga qiyos etdi va “Badoyi' ul-vasat” (“O'rta yosh go'zalliklari”) deb nomladi. 45-60 yoshini umrining qishiga o'xshatib, “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) deb atadi. Har bir devonga 650 tadan g'azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she'riy janrlarga (jami 16 janr) ham joy ajratdi. [Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov, 2018: 42].


Kulliyotdagi “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) devoni ham o'ziga xos jamlanma bo'lib undagi Soqiynoma janri Navoiyning ushbu devoni orqali mumtoz adabiyotga kirib kelgan janr hisoblanadi. Ushbu janr devondagi kichkina doston hisoblanib, u hajman 458 baytdan iborat. Soqiynomada shoir yashagan davrdagi tarixiy shaxslar, sulolalar, tarixiy joy nomlari hamda Navoiy shaxsi bilan bog'liq bo'lgan masalalar aks etganligi bilan ahamiyatlidir.

Navoiy ijodining badiiy qimmatini, shoir san'atkorligining o'ziga xos qirralari uning badiiy tasvir vositalari va san'atlardan amaliyotda foydalanish yo'llarida yanada konkretroq namoyon bo'ladi. Navoiy lirikasida yuzdan ortiq badiiy san'atlar qo'llanilgan bo'lib, ularning ayrimlari misolida ham shoir badiiy tafakkurining yuksak darajasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. [Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov, 2018: 407]. Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonida o'rin olgan Soqiynomasini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu janrda ham shoir turli badiiy san'atlardan foydalangan. Talmeh (arabcha, “chaqmoq chaqish”, “nazar tashlamoq”) san'atida shoir Soqiynomada o'tmishdagi biror tarixiy shaxs, tarixiy sulolalar yoxud joy nomlariga ishora qiladi va uning yordamida fikr yo tasvir ta'sirchanligiga erishiladi. Talmeh she'riy san'ati she'riyatda bir ishora orqali chuqur ma'noni ifodalash, aks ettirish imkonini beruvchi badiiy san'at hisoblanadi. Masalan:


Qani Jamshidu Faridun oxir,  
Birini qo'ydimu gardun oxir!

Ushbu baytda shoirning falsafiy qarashlari aks etgan bo'lib, unda talmeh san'atidan mohirona foydalanilgan. Misralardagi Jamshid va Faridun kabi afsonaviy podshohlar tilga oladi. Baytdagi asosiy fikr shuki: 1-bayt “*Qani Jamshidu Faridun oxir*” – bu ikki buyuk shaxsning (afsonaviy shohlar) ham nihoyasi bo'lganini, ularning shon-shuhrati ham oxirga yetganini anglatuvchi fraza. 2-baytda esa “*Birini qo'ydimu gardun oxir!*” – “zamoni (gardun) ularni olib ketdi, chetga surdi” degan ma'noni beradi — yuksak martabalaridagi shaxslar ham *fano (foniylilik)* qonunidan qocholmaydi ma'nosida talqin qilish mumkin. Bu tilga olingan timsollar orqali shoir hayotning *fanoiyiligini*, dunyoviy shon-shuhratning vaqtinchaligini va inson ko'nglini tug'ilganidan o'tmishga yo'naltirish zarurligini falsafiy ohangda ifodalaydi [G'ulomova, 2024: 305]. Navoiy soqiynomasi haqida mufassal ma'lumot prof. R.Orzibekov ishlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Olimning mumtoz adabiyotdagi tur va janrlarga bag'ishlangan tadqiqotlarida soqiynomaga alohida to'xtalganini ko'ramiz [Orzibekov, 2006: 256].

Soqiynomadagi talmeh san'ati asosan to'rt vosita yordamida hosil bo'lgan:



Soqiynomadagi yana bir baytni tahlilga tortadigan bo'lsak ushbu baytda talmeh she'riy san'atini yuzaga keltiruvchi tarixiy sulolalar nomlari hamda tarixiy shaxs nomlarining alohida tasniflanishi tarixiy manbalarni oson o'rganishda qo'l keladi. Quyidagi baytda uch tarixiy sulolalar hamda tarixiy shaxs nomini keltirilishi orqali talmeh san'ati yaratilgan:



Soqiynomada yuqoridagi talmehlar orasida shoir tomonidan shaxs nomlarining takrorlanishi ba’zi shaxslarning nomlarida o‘zgarishlar kuzatilgan holda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Xizr nomining bir o‘rinda Xizr-u Masiho va bir o‘rinda Xizr suyu kabi nomlar bilan atalishiga duch kelamiz.

Shah ani **Xizr suyidek** yutsa,  
Menga ham durdi jomin tutsa.

Mazkur bayt soqiynomada o‘ziga xos ramziy-timsolli tafakkur asosida qurilgan bo‘lib, u ushbu janrining yetakchi g‘oyaviy va badiiy xususiyatlarini mujassam etadi. Bayt tashqi shaklan may, soqiy va ichish motivlariga tayansa-da, ammo ichki mazmunida falsafiy va ilohiy qarashlarni o‘zida mujassam qilgan. Ushbu baytning birinchi misrasida *Xizr suyi* esa islomiy-irfoniy an’anada abadiy hayot, ma’rifat va ilohiy sirlarni bilish timsolidir. Rivoyatlarga ko‘ra, Xizr hayot suvini ichib, boqiylikka erishgan. Demak, “shah ani Xizr suyidek yutsa” misrasi shohning eng oliy ne‘matga, ya’ni abadiylik va mutlaq saodatga erishishini ifodalayapti. Quyidagi baytda esa shu suvga ishora qilib uni Iso Masihga mengzagan holda Xizr-u Masiho nomlari Navoiyga xos ustalik bilan qo‘llanilib, go‘zal talmeh vujudga kelgan. Soqiynomada Xirs nomi 4 marotaba qo‘llanilgan.

Yo‘q, bu ish johilu donog‘a borur,  
Bahs bal Xizr-u Masihog‘a borur.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Y.Is’hoqov, R.Orzibekov, A.Qayumov, F.Nabiyevlarning Navoiy soqiynomasi bo‘yicha amalga oshirgan ishlari dastlabki tadqiqotlar sifatida qadrlidir. M.Asadovning Navoiy soqiynomasi yuzasidan amalga oshirgan tadqiqoti soqiynoma mavzu ko‘lamining keng yoritilishi, shakliy va tadrijiy jihatdan chuqur tadqiq etilishi, obrazlar tahlili, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarining poetik nuqtayi nazardan o‘rganilishi jihatdan ahamiyatlidir.



Navoiy lirikasidagi leksik birliklarni semantik tahlil qilishni diaxroniya va sinxroniya, ya’ni ikki zamon chizig‘ida amalga oshirish yo‘li deb nomlash ham mumkin. G‘azallarda uchragan izohtalab so‘zlarni diaxron aspektida tahlil qilish orqali XV asr tili leksikasi taraqqiyoti tarixiy va qiyosiy jihatdan o‘rganiladi [Abjalova, G‘ulomova, 2022: 115].

Xulosa qilib aytganda, bayt tashqi mayxona manzarasi ortida **falsafiy-irfoniy mazmuni** yashiradi. Unda shoir dunyoviy qudrat va ilohiy ne‘matlarga berilishdan ko‘ra, kamtarlik, ruhiy poklik va ichki ozodlikni ulug‘laydi. Bu esa Soqiynoma janrining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishiga to‘la mos keladi.

### Adabiyotlar:

1. Abjalova M., Gulomova N. Corpus of Alisher Navoi – Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words, 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.
2. Abjalova M., G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun leksik birliklarni semantik teglashning ikki yondashuvi. TATU ilmiy-texnika va axborot-tahliliy jurnali, – Toshkent, 2024. №2 (70). – B. 64-74.
3. Abjalova M., G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4 (1) 2023. – B. 14-31.
4. Abjalova M., Gulomova N. Alisher Navoi and the third renaissance period. Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115.
5. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187.
6. Abjalova M., Gulomova N. Creation of a Linguistic Database for Alisher Navoi Authorship Corpus. Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TURKLANG 2023» Труды конференции. – Qozon: Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasining nashriyoti, 2023. – С. 659-669.
7. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 4-jild “Favoyid ul-kibar”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B. 682.
8. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallarining tanlanishi. O‘zMU xabarleri // Mirzo Ulug‘bek nomidagi



O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324.  
– B.303-305.

9. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S., Gulomova N. The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

10. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B.42.

11. Орзибеков Р. Ўзбек классик поэзиясида мураккаб структурали жанрлар. – Самарқанд 1984. – Б.146.

12. Сирожиддинов, Ш. У. Х. Р. А. Т. Жизнь и творчество Алишера Навои, гуманистические идеи в его произведениях. *INFOLIB:ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала " E-LINE PRESS"*, (1), 66-71.